

TA'LIM OLUVCHILARNI HAYOTGA TAYYORLASHDA DUAL TA'LIMNING O'RNI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19186185>

Xamrakulov Xamidullo Turgunboyevich

Farg'ona viloyati pedagogik mahorat markazi katta o'qituvchisi, dotsent

e-mail: khamidullo.khamrakulov@mail.ru, telefon: (998) 90-423-59-35

Annotatsiya

Mazkur maqolada O'zbekistonda dual ta'limni joriy etishning huquqiy asoslari ochib berilgan. Shuningdek, unda malakali kadrlar tayyorlash va ta'lim oluvchilarni hayotga tayyorlashda dual ta'limning pedagogik, metodologik va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: *dual ta'lim, hayotiy ko'nikmalar, kompetensiya, kasbiy ta'lim, oliy ta'lim, "Kasb egasi" dual ta'lim tizimi, integratsiya, amaliy faoliyat, mehnat bozori, malakali kadr.*

Abstract

This article reveals the legal basis for the introduction of dual education in Uzbekistan. It also substantiates the pedagogical, methodological, and socio-economic significance of dual education in the training of qualified personnel and the preparation of students for life.

Keywords: *dual education, life skills, competence, professional education, higher education, dual education system "Professional" integration, practical activity, labor market, qualified personnel.*

Аннотация

В данной статье раскрываются правовые основы внедрения дуального образования в Узбекистане. Также в ней обосновано педагогическое, методологическое и социально-экономическое значение дуального образования в подготовке квалифицированных кадров и подготовке обучающихся к жизни.

Ключевые слова: *дуальное образование, жизненные навыки, компетенция, профессиональное образование, высшее образование, дуальная система образования "Мастер профессии", интеграция, практическая деятельность, рынок труда, квалифицированные кадры.*

KIRISH

Zamonaviy globallashtirish jarayoni, iqtisodiyotning raqamlashtirilishi va mehnat bozorining tezkor o'zgarishi ta'lim tizimini yangi sifat bosqichiga olib chiqishni talab qilmoqda. Endilikda nafaqat nazariy bilimga ega, balki real hayotiy vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qila oladigan, kommunikativ va kasbiy moslashuvchan shaxsni shakllantirish zarurati yuzaga kelmoqda. Zero, muhtaram Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda: "Maktab – faqatgina ta'lim beradigan maskan emas, barchamiz uchun yuksak ma'naviyat beshigiga, farzandlarimizni bolalikdan boshlab kasbga o'rgatuvchi dargohga aylanishi zarur ...

Ta'lim jarayonida integrativ yondashuv: nazariya va amaliyotasosida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish

Ta'lim sohasining yana bir eng asosiy vazifasi bugungi kun uchun zarur bo'lgan yangi avlodni, ilm-fan va o'z ixtisosligi asoslarini puxta egallagan, bilimli yoshlarni tarbiyalashdan iboratligi shubhasiz.

Shu bilan birga, aniq fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan, jamiyat, davlat manfaatlarini himoya qiladigan, xalq hayotidagi o'zgarishlar va islohotlarda faol qatnashadigan, zamonaviy va keng tafakkurli yoshlar avlodini shakllantirish vazifasi ham nihoyatda muhim, albatta" [1].

An'anaviy ta'lim modelida ko'proq nazariy bilim berishga urg'u berilishi natijasida amaliy ko'nikmalar yetarlicha shakllanmasligi kuzatiladi. Shu nuqtayi nazardan dual ta'lim modeli dolzarb pedagogik mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda. Dual ta'lim ta'lim oluvchilarni hayotga tayyorlashda, iqtisodiyot va ishlab chiqarish tarmoqlari uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda muhim o'rin turadi. Shu sababli mamlakatimiz ta'lim tizimida dual ta'lim shaklini joriy etish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Kadrlarni an'anaviy ta'lim tizimi asosida tayyorlash bugungi kundagi mehnat bozori talabiga javob bermaydi. 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni O'zbekistonda dual ta'limning kirib kelishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur qonunning 15-moddasida dual ta'lim alohida ta'lim shakli sifatida belgilangan va qonunning 17-moddasida dual ta'lim shakli ta'rifi keltirilgan: "dual ta'lim ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni olishga qaratilgan bo'lib, ularning nazariy qismi ta'lim tashkiloti negizida, amaliy qismi esa ta'lim oluvchining ish joyida amalga oshiriladi" [2].

So'nggi yillarda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining farmon va qarorlarida dual ta'limni rivojlantirish davlat siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-iyundagi "Kambag'allikni qisqartirishda tadbirkorlik subyektlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlik o'rnatishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-93-son farmoni bilan "Kasb egasi" dual ta'lim tizimini amalga oshirish tartibi belgilandi [3] hamda 2022-yil 28-iyuldagi "Chirchiq shahrida qishloq xo'jaligi mashinasozligi klasterini tashkil etishni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-335-son qaroriga asosan Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, "O'zavtosanoat" AJga 2023-2024-yillarda xorijiy universitet va tashkilotlar bilan hamkorlikda mashinasozlik sohasida maxsus sertifikat beriladigan Dual ta'lim markazini tashkil etish vazifasi yuklatildi [4]. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-martdagi "Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari haqida"gi 163-son qaroriga asosan 2021/2022 o'quv yilidan boshlab professional ta'lim tizimida dual ta'lim asosida o'qitish yo'lga qo'yildi. Mazkur qaror bilan Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlangan. Nizomda dual ta'limni tashkil etish va uning bosqichlari, dual ta'limda o'quv jarayoni va ishlab chiqarish amaliyotini olib borish tartibi, dual ta'lim ishtirokchilarining vazifalari, huquq va majburiyatlari belgilab qo'yildi [5]. Bundan tashqari Hukumatning 2025-yil 16-yanvardagi "Oliy ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 14-son qarori asosida 2025/2026 o'quv yilidan boshlab oliy ta'lim tizimida bosqichma-bosqich dual ta'lim asosida o'qitish yo'lga qo'yildi va "Kasb egasi" dual ta'lim tizimini tashkil etish tartibi belgilandi [6]. Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-dekabrda "Maktabgacha va maktab ta'limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi 867-son qarori bilan tasdiqlangan Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy

Ta'lim jarayonida integrativ yondashuv: nazariya va amaliyotasosida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish

rivojlantirishni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomda uzluksiz kasbiy rivojlantirishda ta'lim olishning dual ta'lim shaklidan ham foydalanilishi ko'rsatilgan [7].

MUHOKAMA VA NATIJA

Dual ta'lim tizimining paydo bo'lishi XIX asrga borib taqaladi. Ushbu tizim avvaliga Germaniya va boshqa Yevropa mamlakatlarida shakllandi va keyinchalik dunyoning turli burchaklariga tarqaldi. Bugungi kunda dual ta'lim yondashuvi ko'plab mamlakatlarda, jumladan, Avstriya, Shveysariya, Gollandiya, Janubiy Koreya va boshqa davlatlarda muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda. Ushbu model ta'lim muassasasi va ishlab chiqarish korxonasi o'rtasidagi tizimli hamkorlikka asoslanadi.

Hozirgi kunda Germaniya, Janubiy Koreya va Xitoy tajribalari asosida yaratilgan dual ta'lim modeli milliy ta'lim tizimimizga bosqichma-bosqich tatbiq etilmoqda. Ayniqsa, professional va oliy ta'lim muassasalarida dual o'qitish shakllarining kengaytirilishi amaliy ta'limning sifatini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Dual ta'lim shaklida o'qitish davomiyligi, nazariy va amaliy ta'lim muddatlari hamda yakuniy davlat attestatsiyasi tashkilot va professional ta'lim muassasasi tomonidan tasdiqlanadigan o'quv rejasi va o'quv jarayoni grafigi asosida belgilanadi.

O'quv jarayoni grafigida o'quvchilar bir haftada, qoida tariqasida, kamida ikki kun professional ta'lim muassasasida ta'lim dasturining nazariy, o'quv va amaliy qismini, qolgan kunlari ishlab chiqarish bilan bog'liq amaliy qismlarini tashkilotda o'tkazishlari nazarda tutiladi.

Bunda:

har yili tasdiqlangan reja asosida o'quvchilarni dual ta'lim dasturlari asosida o'qishga jalb etish bo'yicha kasbga yo'naltirish ishlarini tashkil etiladi;

dual ta'lim tashkil etiladigan tashkilot va professional ta'lim muassasasida ta'lim jarayonini tashkil etish yuzasidan hamkorlikni yo'lga qo'yadi hamda kelishilgan o'quv rejasi va o'quv jarayoni grafigini tasdiqlaydi;

o'quvchilarni haftada kamida ikki kun professional ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayonlarida ishtirok etishlarini va qolgan ish kunlarida tegishli tashkilotlarda amaliy mashg'ulotlar bilan birga mehnat faoliyati olib borishlarini ta'minlaydi.

Natijada ta'lim oluvchilar uchun quyidagi imkoniyatlar vujudga keladi:

ishlab chiqarish va ta'limni integratsiya qilish (nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarning bog'liqligi);

amaliy ko'nikmalar (ta'lim oluvchilar nazariy bilimlarni real ish sharoitlarida qo'llash imkoniga ega bo'ladilar);

ma'lum kasb sohasida faoliyat yuritish bo'yicha ish tajribasiga ega bo'lish (ta'lim oluvchilar o'qish davomida ish tajribasiga ega bo'ladilar);

mehnat bozoriga moslashish (bitiruvchilarni mehnat bozori talablariga javob beradigan mutaxassislar sifatida tayyorlash);

ishga joylashish imkoniyati (ko'p hollarda t

An'anaviy ta'limda bilim reproduktiv xarakterga ega bo'lsa, dual ta'limda faol, muammoli va reflektiv faoliyat ustuvor hisoblanadi.

Dual ta'lim modeli quyidagi mexanizm asosida ta'lim oluvchilarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantiradi:

Nazariya → Amaliyot → Refleksiya → Takomillashtirish → Kompetensiya.

Bu jarayon o'z navbatida uzluksiz rivojlanish modelini hosil qiladi.

Ta'lim jarayonida integrativ yondashuv: nazariya va amaliyotasosida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish

Natijalar shuni ko'rsatmoqdaki, mamlakatimizda dual ta'limning rivojlanishi ta'lim jarayonini mehnat bozori ehtiyojlariga yaqinlashtirish, ta'lim oluvchilarning amaliy ko'nikmalarini mustahkamlash va bitiruvchilarning bandlik darajasini oshirishga sezilarli hissa qo'shmoqda.

Shu bilan birga, tizimda ayrim muammolar ham mavjud: ishlab chiqarish korxonalarining hamkorlikdagi mas'uliyati har doim ham yuqori emas, amaliyot jarayonida o'quv rejalari va dasturlari bilan ishlab chiqarish ehtiyojlari o'rtasida nomutanosibliklar uchramoqda, dual ta'lim bo'yicha malaka oshirish mexanizmlari esa hali to'liq yo'lga qo'yilmagan.

Xulosa

Amaliy kuzatishlar shuni ko'rsatmoqdaki, dual ta'lim tizimining bosqichma-bosqich rivojlanishi O'zbekiston ta'lim tizimida tub sifat o'zgarishlarini yuzaga keltirmoqda. Ushbu tizim nafaqat ta'lim oluvchilarning kasbiy kompetensiyalarini kuchaytiradi, balki ta'lim muassasalari bilan ishlab chiqarish o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlikni ham mustahkamlab, fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasini ta'minlaydi. Natijada mamlakatda raqobatbardosh, amaliy tajribaga ega, mehnat bozori talablariga mos kadrlar tayyorlanadi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston ta'lim tizimida dual ta'lim modelini joriy etish ta'limni amaliyot bilan uzviy bog'lashga, ta'lim oluvchilarni kelajak hayotga tayyorlashgata'lim oluvchilar xizmat qiladigan samarali mexanizmdir. Bu tizim ta'lim oluvchilarga nazariy bilimni ishlab chiqarish tajribasi bilan uyg'unlashtirish, hayotiy ko'nikmalar va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish hamda mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllanish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. – T.: “O'zbekiston”, 2022. – 464 b.
2. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi qonuni. – Toshkent, 202-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kambag'allikni qisqartirishda tadbirkorlik subyektlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlik o'rnatishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida”gi farmoni. – Toshkent, 2023-yil 12-iyun, PF-93-son.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Chirchiq shahrida qishloq xo'jaligi mashinasozligi klasterini tashkil etishni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori. – Toshkent, 2022-yil 28-iyul, PQ-335-son.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari haqida”gi qarori. – Toshkent, 2021-yil 29-mart, 163-son.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori. – Toshkent, 2025-yil 16-yanvar, 14-son.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha va maktab ta'limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish to'g'risida”gi qarori. – Toshkent, 2024-yil 20-dekabr, 867-son.
8. Xamidova M. Dual ta'limning imkoniyatlari, afzalliklari va istiqbollari. Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarning o'рни va rivojlanish omillari. 23-to'plam 1-son, 2025-yil sentabr, <https://scientific-jl.com>.
9. Umurov Z.L. Dual ta'lim va ishlab chiqarish uyg'unligi zamonaviy ta'lim konsepsiyasi. INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY (ilmiy-nazariy va metodik jurnal). 2025-yil 3-son.
10. Shukurov Z.N. O'zbekiston ta'lim tizimida dual ta'limning rivojlanish bosqichlari. Yangi O'zbekiston pedagoglari axborotnomasi. 3-jild, 10-son, 2025-yil 31-oktabr.